ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

USMONOVA ODINA SIDDIKOVNA

OLAMNING LISONIY MANZARASIDA TAOM NOMLARINING O‘RNI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Andijon – 2024

UO‘K 811.512'1331:008:641.56

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences

Usmonova Odina Siddikovna
Olamning lisoniy manzarasida taom nomlarining o‘rni 3

Усмонова Одина Сиддиковна
Роль названий еды в языковой картине мира 25

Usmonova Odina Siddikovna
The role of food names in the linguistic picture of the world..... 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ..... 51

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

USMONOVA ODINA SIDDIKOVNA

OLAMNING LISONIY MANZARASIDA TAOM NOMLARINING O‘RNI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Andijon – 2024

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4292 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Andijon davlat chet tillari instituti veb sahifasining (www.adchti.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Shaxabitdinova Shoxida Xoshimovna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Mirzahidova Muyassar Inamjanovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Gulyamova Shaxnoza Kaxramonovna filologiya fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Qo‘qon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “____” _____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Andijon shahar, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel:0(374)223-42-76; faks:0(374)223-42-76; e-mail: asif@edu.uz)..

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 170100 Andijon shahar, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel:0(374)223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “____”_____ kuni tarqatildi.
(2023-yil “____”_____ dagi № _____raqamli reyestr bayonnomasi.)

D.A.Rustamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, f.f.d., professor

A.Dj.Ataboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.f.f.d., (PhD)

L.R.Raupova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi
v.b., f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida olamning lisoniy manzarasida taomlarning nomlarini o‘rganish borasida ahamiyatli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqot sohasi katta lingvistik ahamiyatga ega, chunki u tilning madaniy, tarixiy va ijtimoiy jihatlari haqida tushuncha beradi. Zotan, har qanday tilda taom nomlari uning lisoniy manzarasining ajralmas qismidir. Ushbu nomlar ko‘pincha ma’lum bir mintaqa yoki jamoaning noyob madaniy va tarixiy kontekstini aks ettiradi.

Dunyo tilshunosligida mazkur masala borasida qiziqarli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ovqatlarning nomlarini o‘rganishning asosiy jihatlaridan biri etimologiyani o‘rganishdir. Etimologiya so‘zlarning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishini, shu jumladan, ularning ma’nolari va shakllarini o‘rganadi. Bundan tashqari, taom nomlarini o‘rganish tilning sotsiolingvistik jihatlari haqida ham qimmatli ma’lumotlarni beradi. Taom nomlari ko‘pincha jamiyatdagi ijtimoiy dinamikani aks ettiradi. Ushbu lingvistik belgilarni tahlil qilish orqali lingvistik jamoada faoliyat yuritadigan ijtimoiy iyerarxiya va madaniy dinamikani chuqurroq tushunish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida mazkur sohada sanoqli ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, taom nomlarini o‘rganish, shuningdek, tilning oshpazlik lug‘atini shakllantirgan madaniyatlararo ta’sirlar va almashinuvlarga ham oydinlik kiritish lozim. Tarix davomida tillar savdo, migratsiya va madaniy almashinuv orqali bir-biridan so‘z va tushunchalarni o‘zlashtirgan. Ovqatlarning nomlarini o‘rganish orqali turli madaniyatlar bir-birining oshpazlik an’analariga qanday ta’sir qilgani va boyitganligini ko‘rsatib, ushbu o‘zaro ta’sirlarning “lingvistik izlarini” kashf etish lozim. Zero, oziq-ovqatni nomlash uchun ishlatiladigan terminologiya xalqning madaniy ruhiyati, dunyoqarashi, qadriyatlari va urf-odatlari haqida alohida tasavvur beradi. “...Davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, bu sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish”[1] vazifasini bajarishda olamning lisoniy manzarasida taom nomlarining o‘rnini aniqlash muhim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4997-son, 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivolantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PF-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni // www.xabar.uz

4-oktyabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari, 2020-yil 24-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ma’lumki, tilshunoslikda soha atamalarining turli jihatlarini yoritishga doir salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Dunyo tilshunosligida, turkologiyada taom nomlari bilan bog‘liq so‘zlarning leksik-grammatik, leksik-semantik jihatlari yuzasidan qiyosiy planda maxsus tadqiqot yaratilmagan bo‘lsa-da, ularning grammatik va semantik xususiyatlariga tegishli jihatlar yuzasidan muayyan bir til misolida ayrim ishlar orqali ma’lumot olish mumkin. Jumladan, jahon tilshunosligida I.M.Otarov, L.P.Potapov, A.V.Burdukov, V.K.Bushmane, V.D.Vaneyev[2], o‘zbek tilshunosligida N.Ikramova, G.Odilova, M.Xudoyarova, M.Qurbonova, K.Shaniyazov, Y.Norova va boshqa olimlarning taom nomlari bilan bog‘liq tadqiqotlari e’tiborga sazovor[3]. Qirg‘iz tilshunosligida esa A.Japanov, G.Abdurazaqova, V.Kuttubekova, S.Kayipov[4] kabi olimlar mazkur mavzu doirasida tadqiqot olib borishgan.

Tuvin milliy taomlar (mahsulotlar) nomlari manbayi L.A.Potapov[5], S.I.Vaynshteyn[6], M.V.Bavuu-Syuryun[7] ilmiy ishlarida o‘z aksini topdi. Ular

---

[2] Отаров И.М. Очерки карачаево-балкарской терминологии. – Нальчик, 1987; Потапов Л.П. Пища алтайцев // Гос. Музей антропологии и этнографии. XIV. – Л.: Наука, 1953. – 444 с.; Бурдуков А.В. Значение молочных продуктов и способы их приготовления у монголов в Джаргалантуйском округах Монгольской Народной Республики // Советская этнография, 1936, №1. Бушмане Б.К. Название кушаний в латышских говорах. – АКД, Рига, 1973. – 23 с.; Ванеев В.Д. Термины пищевых продуктов в осетинском языке // Известия Юго-Осетинского научно-исследовательского института АН Грузинской ССР, 1972, вып. 17.

[3] Икрамова Н.М. Узбекская кулинарная лексика: Дисс. канд. филол. наук (на правах рукописи). – Ташкент, 1983. – 168 с.; Худаярова М. Ўзбек тилидаги таом номларининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. ...номз. дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 20; Шаниязов К. О традиционной пище узбеков // Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. – Ташкент, 1972. – 106 с.; Қурбонова М. Бухоро воҳаси ўзбек ва тожикларининг анъанавий таомлари: Тарих фан. ...номз. дисс. – Тошкент, 1994. – 158 б.; Одилова Г. Хусусий дискурслар лингвомаданий талқинининг назарияси ва амалиёти: Филол. фан. ...д-ри дисс. – Тошкент, 2020. – 273 б.; Norova Y. O‘zbek xalq paremalarining etnolingvistik xususiyatlari: Filol. fan. b-cha fals. ...d-ri diss. – Buxoro, 2023. – 141-b.

[4] Джапанов А. Кыргыз тилиндеги тамак-ашка байланыштуу сөздөр. – Бишкек, 2012. – 304 б. Абдуразакова Г.Ш. «Тамак-аш» концепти кыргыздардын аң-сезиминде // Вестник Иссык-Кульского университета, № 50, 2021. 1-7-беттер. Куттубекова В.М. Түндүк жана түндүк-батыш Кыргызстанда жашаган кыргыз үй-бүлөлөрүнүн совет доорундагы тамак-аш системасы. филол. илим. канд. дисс. – Б., 2019. – 208 б. Кайыпов С.Т. Түркияда жашаган Памир кыргыздарынын тамак-аш маданияты: тарыхый-этнографиялык изилдөө. Тарых илим. док. дисс. – Бишкек, 2012. – 371 б.

[5] Диалектологический словарь якутского языка: Дополнительный том / сост. М.С.Воронкин, М.П.Алексеев, Ю.И.Васильев. – Новосибирск: Наука, 1995. – 296 с.

[6] Вайнштейн С. И. Тувинцы-тоджинцы: Ист.-этногр. очерки / Акад. наук СССР. Ин-т народов Азии. Тувин. науч.-исслед. ин-т языка, литературы и истории. – М.: Изд-во вост. лит., 1961. – 218 с.

[7] Бавуу-Сюрюн М.В. История формирования диалектов и говоров тувинского языка: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Новосибирск, 2018. – 393 с.

an’anaviy taomlarning adabiy-normativ nomlari bilan birga dialektizmlarni ham taqdim etishgan. Etnograf A.A.Savvin sutli taomlar uchun 40 dan ortiq reseptlarni to‘plagan[8], ularning ko‘p sonli nomlari dialektizmlar maqomiga o‘tgan.

F.G.Fatkullina esa “non” (rus frazeologiyasida), “asal-sariyog‘” (boshqird frazeologiyasida) so‘zlari turli tillarning frazeologiyasida va aforistikasida moddiy farovonlikning ramzi sifatida ishlatilishini ta’kidlaydi[9] .

O‘zbek tilshunosligida pazandachilik leksikasi N.Ikramova[10] tomonidan o‘rganilgan. U, asosan, Toshkent shahri shevasidagi taom nomlarini tadqiq qilgan bo‘lsa, M.Xudayarova “O‘zbek tilida taom nomlarining lingvistik tahlili” (Qoraqolpog‘iston materiallari asosida)[11] mavzusida nomzodlik ishi himoya qilgan.

G.Odilova[12]ning bu boradagi tadqiqoti keng ko‘lamli bo‘lib, taom reseptlari va menyularning shakllanishiga doir nazariy va amaliy tavsiyalari diqqatga sazovor.

Lekin olamning lisoniy manzarasida taom nomlarining o‘rni masalasi tillarda tadqiq etilmagan. Tillarda glyuttonik diskurni nazariy aspektda o‘rganish bo‘yicha keng miqyosda tadqiqotlarning olib borilishi bu sohaning manbalarini aniqlash, o‘rganish usullarini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot Andijon davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Zamonaviy tilshunoslikning nazariy hamda amaliy muammo va yechimlari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi olamning lisoniy manzarasida taom nomlarining o‘rni va ahamiyati masalasini, lingvistik, lingvokulturologik va sotsiolingvistik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“olamning lisoniy manzarasi” tushunchasi mohiyati mahalliy, xorijiy tilshunoslikdagi tadqiqotlarni o‘rganish asosida umumlashtirish hamda misollar asosida izohlash;

taom nomlarining tarixiy rivojlanishini izchil o‘rganish va guruhlash;

tilning lingvistik evolyutsiyasi va unda taom nomlarini o‘rganish masalasini tahlil qilish;

taom nomlarining lingvistik tahlilini amalga oshirish;

taom nomlarining lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash;

---

[8] Саввин А.А. Пища якутов до развития земледелия (опыт историко-этнографической монографии) / подгот. текста, ввод. ст., послесл., коммент. и примеч. д. и. н. Е. Н. Романовой (отв. ред.); литер. ред. Н.И.Дегтярева. – Якутск: ИГИ АН РС (Я), 2005. – 376 с.

[9] Фаткуллина Ф.Г. Отражение национальной языковой картины мира в реалиях Башкортостана / Ф.Г.Фаткуллина // Актуальные вопросы межнационального взаимодействия и межкультурной коммуникации в образовании: Мат-лы научн. конф. – Москва: МГЛУ, 2014. – С. 190-197.

[10] Икрамова Н.М. Узбекская кулинарная лексика: Дисс. ...канд. филол. наук (на правах рукописи). – Ташкент, 1983. – 168 с.

[11] Худаярова М. Ўзбек тилидаги таом номларининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. ...номз. дисс. – Тошкент, 2008. – 130 б.

[12] Одилова Г. Хусусий дискурслар лингвомаданий талқинининг назарияси ва амалиёти: Филол. фан. ...д-ри. дисс. – Тошкент, 2020. – 273 б.

oziq-ovqat nomlarining tilda kodlangan ijtimoiy iyerarxiya va gender normalarini izohlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida tillarda mavjud taom nomlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti olamning lisoniy manzarasida taom nomlarining genezisi, sinxron lingvistik tavsifi, lingvokulturologik va sotsiolingvistik jihatlaridir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tasniflash, qiyoslash, komponent, kognitiv, kontekstual, leksikografik, lingvokulturologik va sotsiolingvistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oziq-ovqat nomlarida kodlangan ijtimoiy iyerarxiya va gender normalari sotsiolingvistik yondashuv negizida aniqlanishi orqali nutqdagi mahsulot, ingrediyent, taom, pishirish usullari va ovqatlanish odatlarini bildiruvchi atamalar tilning o‘zida kodlangan tizimli tengsizlik va taxminlarni ochib berishi asoslangan;

“taom” konsepti olam lisoniy manzarasining bir bo‘lagi bo‘lib, milliy tushuncha, g‘oya, tasvir va munosabatlarni aks ettiruvchi ustuvorlik, stereotip, mentalitet va dunyoqarash, ijtimoiy-madaniy munosabatlar tizimi, turli xalqlar madaniyatlariga xos bo‘lgan an’ana, urf-odat va e’tiqod, bu xalqlarning tarixiy taqdirlaridagi farqlarni namoyon etishi ochib berilgan;

“taom” konsepti ko‘p qatlamli tushuncha bo‘lib, u alohida yegulik va mahsulotlarning o‘ziga xos nomlarini, shuningdek, muqaddas ma’noga ega bo‘lgan ramziy arxetipik tasvirlarni o‘z ichiga olishi aniqlangan;

“taom” tushunchasi nafaqat so‘zning leksik ma’nosini, balki madaniy, ijtimoiy va gastronomik jihatlarini ham aks ettirib, tilda taomni ifodalash uchun mavjud birliklar turli madaniyat va jamiyatning ovqatlanish hamda gastronomiya haqidagi g‘oyalarini tashkil etishi, madaniy jihatdan nafaqat moddiy obyekt (oziq-ovqat), balki oziq-ovqat tayyorlash, xizmat qilish va is’temol qilish bilan bog‘liq madaniy xususiyatlar: an’analar va urf-odatlarni ham o‘z ichiga olishi, ijtimoiy jihatdan tilda ijtimoiy mavqe, yosh, jins yoki boshqa ijtimoiy jihatlarni aks ettiruvchi taomlar uchun turli xil atamalar bo‘lishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy o‘quv yurtlarida umumiy, qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik, kommunikativ lingvistika bo‘yicha darsliklar yaratish hamda ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarning mukammallashuviga xizmat qiladigan materiallar yig‘ilgan;

taom leksikasining semantik-funksional xususiyatlariga oid materiallardan pragmalingvistika, sotsiolingvistika, leksikologiya, semasiologiya, leksikografiya va terminologiya kabi fanlarni o‘qitishda unumli foydalanish mumkinligi ko‘rsatib berilgan;

dissertatsiya natijasida olingan lingvistik va madaniy bilimlar oshpazlik an’analarini saqlash va ommalashtirish, shuningdek, madaniyatlararo aloqani optimallashtirish uchun ahamiyatli;

ovqat nomlarini lingvistik va madaniy o‘rganish quyidagi imkoniyatlarni beradi: 1) lingvokulturologiya va milliy taomlar tarixi bo‘yicha o‘quv kurslarini ishlab chiqish; 2) taom nomlari bo‘yicha tematik lug‘at va ma’lumotnomalarni

yaratish; 3) milliy taomlar tili va madaniyatiga bag‘ishlangan ko‘rgazma va muzey ekspozitsiyalarini tashkil etish; 4) axborot tizimlarini, kengaytirilgan reallik funksiyasiga ega mobil ilovalarni ishlab chiqish, taom nomlarining kontekstini ochib berish; 5) menyularida taom nomlarining kelib chiqishi haqida sharhlar bo‘lgan restoranlar uchun audio qo‘llanmalar yaratish; 6) restoran biznesi va oziq-ovqat sanoatida nom, menyu matnlarini yaratish uchun qo‘llash; 7) milliy taomlarni ommalashtirish, oziq-ovqat brendlarini targ‘ib qilish dasturlarida foydalanish.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o‘rganilgan materiallarning tabiiy til tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilishga yordam berganligi, ularning asosli ekanligi, metodologik mukammalligi, amalda isbotlangan manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.

tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati shundaki, chiqarilgan nazariy xulosalar tillardagi taom nomlarini o‘rganishda, tizimni aniqlashda hamda mukammal tasniflashda muhim ahamiyat kasb etadi.

tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tillardagi taom nomlarini ifodalovchi so‘zlarga oid umumlashmalar va materiallar tilshunoslik, etnografiya, tarix fanlari rivoji uchun xizmat qilib, tilshunoslikda madaniy aloqa va ta’sir masalalari bo‘yicha ma’ruzalar o‘qishda, dars mashg‘ulotlari olib borishda, o‘quv qo‘llanmalari, darslik, majmua va izohli lug‘atlar yaratishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Olamning lisoniy manzarasida taom nomlarining o‘rni va masalasini, taom nomlarining tarixiy rivojlanishi, lingvistik, lingvokulturologik va sotsiolingvistik xususiyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq vazifalarni tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“taom” konseptining ko‘p qatlamli tushunchaligi, u alohida yegulik va mahsulotlarning o‘ziga xos nomlarini, shuningdek muqaddas ma’noga ega bo‘lgan ramziy arxetipik tasvirlarni o‘z ichiga olishiga doir o‘ziga xos jihatlar bilan bog‘liq ilmiy xulosalardan Andijon davlat universitetida bajarilgan “OT-F1-18. Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlar va metodologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan. (Andijon davlat universitetining 2024-yil 24-apreldagi 39-01-489-son ma’lumotnomasi). Natijada lisoniy madaniyatni ta’minlashga oid metodologiya nutq vositalariga doir yangi nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

“taom” tushunchasi nafaqat so‘zning leksik ma’nosini, balki madaniy, ijtimoiy va gastronomik jihatlarini ham aks ettirib, tilda taomni ifodalash uchun mavjud birliklar turli madaniyat va jamiyatning ovqatlanish hamda gastronomiya haqidagi g‘oyalarini tashkil etishi, madaniy jihatdan nafaqat moddiy obyekt (oziq-ovqat), balki oziq-ovqat tayyorlash, xizmat qilish va is’temol qilish bilan bog‘liq madaniy xususiyatlar: an’analar, urf-odatlarni ham o‘z ichiga olishi, ijtimoiy jihatdan tilda ijtimoiy mavqe, yosh, jins yoki boshqa ijtimoiy jihatlarni ham aks ettiruvchi taomlar uchun turli xil atamalar bo‘lishi asoslanganligi kabilardan ularning olam lisoniy manzarasidagi aksiga doir lingvistik atamalarni izohlashda

Andijon davlat universitetida 2022-2023-yillarda bajarilgan “№ IL-402104213. O‘zbek tilida elektron lingvistik ensiklopedik lug‘at ishlab chiqish” davlat innovatsion-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan. (Andijon davlat universitetining 2024-yil 24-apreldagi 39-01-488-son ma’lumotnomasi). Natijada olam lisoniy manzarasi tavsifida qo‘llaniluvchi ayrim birliklarning o‘ziga xosliklari ochib berilgan;

“taom” konsepti olam lisoniy manzarasining bir bo‘lagi bo‘lib, milliy tushuncha, g‘oya, tasvir va munosabatlarni aks ettiruvchi ustuvorlik, stereotip, mentalitet va dunyoqarash, ijtimoiy-madaniy munosabatlar tizimi, turli xalqlar madaniyatlariga xos bo‘lgan an’ana, urf-odat va e’tiqod, bu xalqlarning tarixiy taqdirlaridagi farqlarni namoyon etishi haqidagi xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muxarririyati tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon”, “O‘zbekiston yoshlari” nomli dasturlar senariysida (2024-yil yanvar va fevral oylari) foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 5-fevraldagi 04-36-175-son ma’lumotnomasi). Natijada eshittirishlarning ilmiy saviyasi ortgan hamda tillardagi taom nomlarini o‘rganishda, tizimni aniqlashda hamda mukammal tasniflashda nazariy qarashlar va faktlar bilan boyitib berishda o‘ziga xoslik ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 7 ta ilmiy ish nashr ettirilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 3 ta ilmiy maqola (ulardan 1tasi xorijiy jurnalda) chop qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Hajmi 151 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad-vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning “Olamning lisoniy manzarasida taom nomlarini o‘rganishning ilmiy ahamiyati” deb nomlanuvchi I bobida “olamning lisoniy manzarasi” tushunchasi mohiyati, konseptning ta’rifi masalasi, taom nomlarining konsept sifatida voqelanishi kabi masalalar o‘rganilgan hamda ushbu masalalarga munosabat bildirilgan. Bobning birinchi fasli “Olamning lisoniy manzarasi” tushunchasi mohiyati” deb nomlanadi. Mazkur faslda “olamning lisoniy

manzarasi” tushunchasining shakllanishi, qo‘llanishi, mohiyati masalasi o‘rganilgan, tahlil qilingan va sistemalashtirilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida “dunyo manzarasi” atamasi turli nemis filolog, faylasuf, madaniyatshunos, antropolog va tabiatshunoslarining asarlarida paydo bo‘lgan[13]. Ular odatda dunyo manzarasining obrazli ma’no va konseptual maqomini emas, balki uning so‘zma-so‘zligini ta’kidlab, tasvir, aks ettirish yoki namoyish qilish, deb atashgan. Bu talqin ayniqsa tabiiy fanlarda keng tarqalgan edi. Masalan, fizikada u “ularning xatti-harakatlari to‘g‘risida mantiqiy ma’lumot olish uchun ishlatiladigan tashqi obyektlarning aqliy tasvirlari to‘plami”[14]ni bildirgan. Ushbu konsepsiya dunyo haqidagi g‘oyalarning subyektiv shakllanishiga emas, balki dunyoning obyektiv ramziy (matematik) modelining mantiqiy qurilishiga ishora qiladi.

“Olamning lisoniy manzarasi” tilshunoslik sohasidagi tushuncha bo‘lib, tilning dunyoni idrok etishni shakllantirish va ta’sir qilish usulini tavsiflaydi. Ushbu konsepsiya til nafaqat voqelikni aks ettiradi, balki uning qurilishida ham faol ishtirok etadi, degan fikrga asoslanadi. Har bir tilda vaqt, makon, odam va obyekt o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalashning turli usullari mavjud bo‘lib, bu haqiqatni fikrlash va idrok etishga olib keladi.

Maxsus lingvistik dunyoqarash tushunchasi dastlab fon Gumboldt tomonidan shakllantirilgan bo‘lib, uning ta’limoti XIX asr boshlarida nemis klassik falsafasiga to‘g‘ri kelgan[15].

Shuningdek, olamning lisoniy manzarasi nazariyasining rivojlanishida amerikalik etnolingvistlar E.Sepir va uning izdoshi B.Uorfning ham hissalari beqiyosdir[16]. Ular etnolingvistikaning nazariy yadrosini tashkil etuvchi “Sepir-Uorf gipotezasi”ni ishlab chiqdilar. Ushbu nazariyaga ko‘ra, fikrlash normalaridagi farq madaniy va tarixiy talqinda xulq-atvor normalarining tafovutini belgilaydi.

Demak, “olamning lisoniy manzarasi” tushunchasi tilshunoslik doirasida XX asrda shakllana boshladi. Uning shakllanishida bir necha bosqichlarni ajratish mumkin:

1. Tilning “ichki shakli” g‘oyasini kiritgan Vilgelm fon Gumboldtning asarlari. U til dunyoni ma’lum bir tarzda ajratib turishini va “xalq ruhi”ning ifodasi ekanligini ko‘rsatdi.

2. Sepir-Uorf gipotezasining lingvistik nisbiyligi, ya’ni u til o‘z ma’ruzachilarining tafakkuri va dunyoqarashini belgilaydi, deb ta’kidlaydi.

3. Tilning tizimli tashkil etilishi haqidagi strukturalizm g‘oyalari (F.Sossyur). Til tajriba oqimini ajratuvchi belgilar tizimi sifatida qaraldi.

4.Lingvokulturologiya, etnolingvistika va kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi.

---

[13] Витгенштейн Л. Философские работы. Ч. 1. – Москва, 1994. – 612 с.

[14] Герц Г. Три картины мира // Новые идеи в философии. Сб. 11: Теория познания и точные науки. – СПб., 1914. – С. 65-123.

[15] Карданова К.С. Языковая картина мира: мифы и реальность [Текст] / К.С.Карданова // Русский язык в школе. – 2010. – № 9. – С. 61-65.

[16] Уорф Б.Л. Отношения норм поведения и мышления к языку [Текст] / Б.Л.Уорф // История языкознания XIX–XX веков в очерках и извлечениях: в 2 ч. Ч. II. – Москва: Просвещение, 1965. – С. 255-281.

Olamning lisoniy manzarasi va o‘zbek tiliga xos konsept, konseptosferalar xususida N.Mahmudov, Sh.Safarov, A.Nurmonov, A.Abduazizov, A.Mamatov, A.Sobirov, J.Eltazarov, D.Xudayberganova, M.Ergasheva, T.Sh.Maxmaraimova, N.Umarova singari olimlarning ishlari alohida o‘rin tutadi.

Olamning lisoniy manzarasi g‘oyasini shakllantirish til, madaniyat va tafakkur o‘rtasidagi munosabatlarni har tomonlama tahlil qilishga asoslangan. Bunda bir qator asosiy fikrlarni ta’kidlash mumkin: 1. Til nafaqat haqiqatni aks ettiradi, balki ma’lum bir tarzda interpretatsiya (talqin) qiladi. Bu nafaqat nominasiya, balki dunyoni turkumlashdir. 2. Tilda ajralib turadigan kategoriyalar, fikr va ma’nolar qisman universal, qisman milliy o‘ziga xosdir. 3. Olamning tashqi manzarasi ortida ichki tasvir – g‘oya, e’tiqod va qadriyatlar tizimi mavjud. 4.Olamning lisoniy manzarasi olamning konseptual manzarasi bilan bog‘liq, ammo u bilan bir xil emas. 5. Olamning lisoniy manzarasi xalq madaniyati va tarixi bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganiladi.

Bobning ikkinchi fasli “Taom nomlari konsept sifatida” deb nomlanadi. Konseptning mohiyatini aniqlash masalasi zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda dolzarb vazifalardan bo‘lib qolmoqda. Konseptual tizim shaxsning dunyoqarashini shakllantiradi, uning voqelikni tushunishini aks ettiradi. Konseptlarning muammoli sohasini o‘rganish va olamning lisoniy manzarasini tushunish kognitiv tilshunoslikning ilmiy tadqiqot sohasidir. Bu mental dunyoni ifodalovchi va odamlarning atrof-muhit haqidagi qarashlarini qamrab oladigan, tushunchalar deb nomlanuvchi minimal birliklarga joylashtirilgan konseptual sohani o‘rganishni o‘z ichiga oladi. “Konsept”, “tushuncha” va “ma’no” kabi terminlar ko‘pincha bir-birining o‘rnida ishlatiladi.

“Konsept” atamasi lotincha “conceptus” so‘zidan kelib chiqqan. Olimlar mazkur terminni turlicha talqin qiladilar, bu esa tilshunoslik sohasida ko‘plab ta’riflarga olib keladi. Kognitiv psixologiya “konsept” va “tushuncha” atamalarini ajratib ko‘rsatadi, bu esa ushbu terminlarning bir-biridan aniq farqlanishiga olib keladi[17]. Lingvokulturologik yondashuv konsept tushunchasini madaniyatning asosiy birligi, uning konsentrati sifatida tan olgan. Y.S.Stepanov konseptning tuzilishiga “uni madaniyat faktiga aylantiradigan hamma narsa, jumladan, asl shakli (etimologiya); tarkibning asosiy xususiyatlariga kelib chiqish tarixi; zamonaviy tashkilotlar; baholash va boshqalar kiradi”, deb hisoblaydi[18].

S.G.Vorkachyov ta’kidlaganidek, lingvokulturologik konseptning asosiy vazifasi “o‘z semantikasida milliy mentalitetni etnik guruh va milliy xarakterning mafkuraviy hamda xulq-atvor xususiyatlari to‘plami, lisoniy shaxsning ma’naviy hayotining nisbatan barqaror va ajralmas ombori sifatida aks ettirish qobiliyatidir[19]”.

---

[17] Кольцова Ю.Н. О структуре концепта как категории культурологии // Язык и культура. Лингвистика, поэтика, сравнительная культурология, теория перевода / Под ред. Н.К.Гарбовского. – Москва, МГУ, 2001. – 152 с.

[18] Степанов Ю.С. Концепты. Тонкая пленка цивилизации. – Москва: Языки славянских культур, 2007. – 248 с.

[19] Воркачёв С. Г. Концепт как «зонтиковый термин» // Язык, сознание, коммуникация. Вып. 24. – Москва, 2003. – С. 5-12.

Zamonaviy til nazariyasida oziq-ovqat konseptining tuzilishi va mazmunini aniqlash muammosi tilshunos, shuningdek, psixolingvist, lingvokulturolog, faylasuf va psixologlar uchun katta qiziqish uyg‘otmoqda.

O.G.Savelyeva “taom” konseptini olamning lisoniy manzarasining bir qismi sifatida ko‘rib chiqadi. U taom konseptining mazmuni va tuzilishini til-madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar asosida ochib beradi[20]. Z.A.Gulovaning dissertatsiya tadqiqotida esa mazkur konsept qiyosiy tahlil doirasida (rus va polyak tillarida) tavsiflangan[21]. Ushbu konseptni tavsiflash uchun madaniy tashuvchilar sifatida ikki tilning katta miqdordagi lingvistik materiallari, logoepistemalari jalb qilingan. Lingvistik birliklarni tahlil qilish leksemadan kategoriyaga va kategoriyadan leksemaga o‘rganiladigan asosiy toifalarga asoslanadi. N.I.Kovalyov tadqiqotiga ko‘ra rus xalq og‘zaki ijodiyotidagi taom konsepti quyidagi ma’nolarga ega: 1) odamlar uchun mos bo‘lgan barcha taom mahsulotlarining umumiy ma’nosi; 2) ovqatlanish jarayoni; 3) ovqat, yegulik.

Til tizimidagi “taom” konseptini quyidagicha izohlash mumkin:

1) oziq-ovqatlarni tanovul qilish, hazm qilish jarayoni sifatida;

2) turli xil obyektlarning to‘plami bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan jamoaviy tushuncha sifatida.

Taomning lingvistik konsepti bilimlarni umumlashtiradigan kognitiv konstruksiya sifatida madaniy va lingvokultural kompetensiyaning mavjudligini anglatadi. “Taom” konsepti murakkab hodisa. U uzoq vaqtdan beri moddiy madaniyat va kundalik hayotning asosiy qismi bo‘lib kelgan lingvistik hamda madaniy tushunchadir. Tarixiy jihatdan u madaniy qadriyatlar ichida birinchi paydo bo‘lgan va rivojlangan sohani anglatadi.

“Taom” konsepti olam lisoniy manzarasining bir bo‘lagi bo‘lib, tegishli tushuncha, g‘oya, tasvir va munosabatlarni ochib beradi. U milliy xususiyatlarni aks ettiruvchi ustuvorlik, stereotip, mentalitet va dunyoqarash, ijtimoiy-madaniy munosabatlar tizimi, turli xalqlar madaniyatlariga xos bo‘lgan an’ana, urf-odat va e’tiqod, bu xalqlarning tarixiy taqdirlarida sezilarli farqlarni namoyon etadi. Bizningcha, “taom” konsepti milliy qadriyatlar tizimida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi.

Taom nomlarini lingvistik va madaniy konsept sifatida o‘rganish katta ahamiyatga ega. Jumladan:

1. Oshpazlik an’analari va tilning tarixiy evolyutsiyasini, ularning o‘zaro ta’sirini kuzatish imkonini beradi.

2. Muayyan milliy oshxonaning o‘ziga xosligi haqida fikr beradi. Masalan, *“chuchvara”, “xarcho”, “kimchi”* konseptlari ma’lum bir madaniyatga tegishlilikni ifoda etadi.

3. Ona tilida so‘zlashuvchilarning ijtimoiy, mintaqaviy va kasbiy maqomining belgisi sifatida xizmat qiladi.

---

[20] Савельева О.Г. Концепт «еда» как фрагмент языковой картины мира: лексико-семантический и когнитивно-прагматический аспекты (на материале русского и английского языков): Автореф. дисс. ….канд. филол. наук. – Краснодар, 2006. – 25 с.

[21] Гулова З.А. Концепт «еда» в русском и польском языках: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Душанбе, 2013. – 24 с.

Gastronomik konseptlarini o‘rganish jamiyat rivojlanishi va uning qadriyatlari to‘g‘risida har tomonlama tushuncha beradi. Xulosa qilib aytganda, barcha xalqlarda taom konsepti muhim ahamiyatga ega, chunki u xalqning mentaliteti, urf-odatlari va dunyoqarashini aks ettiradi. Bu nafaqat ovqatlanish manbai, balki muloqot, an’ana va mehmondo‘stlik ramzi hamdir. Taomlarning tayyorlanishi ko‘pincha oilaviy an’ana, bayram va unutilmas voqealar bilan bog‘liq. Shuning uchun oziq-ovqat va turli xil taomlar madaniy meros hamda ijtimoiy urf-odatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Taom nomlari genezisi va sinxron lingvistik tavsifi” deb nomlanib, unda taom nomlarining tarixiy rivojlanishi, tilning lingvistik evolyutsiyasi va unda taom nomlarini o‘rganishning dolzarbligi hamda ularning lingvistik tahlili masalalari muhokama etilgan. Bobning birinchi bo‘limi “Taom nomlarining tarixiy rivojlanishi” deb nomlanadi. Taom nomlarining tarixi turli xalqlarning madaniy, tarixiy va geografik jihatlarini aks ettiruvchi chuqur ildizlarga ega. Taom nomlari tarixiy voqea, an’ana, mahalliy mahsulot va urf-odatlar bilan bog‘liq. Ular boshqa madaniyat va tillarning ta’sirini, shuningdek oshpazlik imtiyozlari va texnologiyalaridagi o‘zgarishlarni aks ettiradi.

Ovqatlarning ko‘plab nomlari avloddan-avlodga o‘tib kelgan qadimiy reseptlarda ildiz otgan. Masalan, ba’zi taomlar o‘z nomlarini ular yaratilgan yoki mashhur bo‘lgan joylardan oladi. Boshqa nomlar pishirish usullarini, tarkibiy qismlarning xususiyatlarini yoki hatto afsona va rivoyatlarni aks ettirishi mumkin. Taom nomlari tarixi shuni ko‘rsatadiki, taomning o‘zi birinchi bo‘lib paydo bo‘lgan, keyin esa unga nom berilgan. Har bir xalqda asrlar davomida o‘zgarib kelgan taomlarning nomlari milliy bo‘lib qolishi, o‘zgarmasligi va ularning an’anaviy mazmuni va pishirish usullarini aniq aks ettirishi kerak.

Ko‘plab taomlarning nomlari uzoq va qiziqarli tarixga ega. Jumladan, “pitsa” so‘zi italyanchadan kelib chiqqan va bu o‘z navbatida lotincha “pinsa” – “yassi non” so‘ziga borib taqaladi. Pitsa haqida birinchi eslatma qadimgi Rim davriga to‘g‘ri keladi. Keyin bu taom toshlarda pishirilgan xamirturushsiz xamirdan tayyorlangan yassi non bo‘lgan. Pitsa XVIII asrda Neapolda zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘ldi. An’anaviy neopolitan pitsasi bug‘doy uni, xamirturush, tuz, suv va pomidor sousidan tayyorlanadi[22].

Markaziy Osiyo taom nomlari ko‘pincha ularning kelib chiqishi, pishirish usuli yoki ishlatilgan ingrediyentlarni aks ettiradi. Ovqatlarning ko‘plab nomlari turkiy, fors, mo‘g‘ul yoki boshqa etnik ildizlarga ega. Quyida O‘rta Osiyo taomlariga misol va ularning nomlari keltirilgan:

1. **CHUCHVARA** – ichiga qiyma solib tugilgan, mantidan ko‘ra kichikroq xamir ovqat. Ko‘k chuchvara. Qovurma chuchvara[23]. Bu jahon pazandachiligida g‘oyatda keng tarqalgan taom hisoblanadi. Barcha Osiyo va Yevropada istiqomat qiluvchi hamda Amerika qit’asida ayrim xalqlarning oshxonasiga mansub bo‘lib, birida unutilgan bo‘lsa, ikkinchisi orqali yana o‘z-o‘zidan tiklanib kelgan.

[22] https://recept-2u.com.ua/idealnaya-pitstsa/(murojaat sanasi 23.12.2023)

[23] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. 4-жилд. – 608 б. – Б. 552.

Chuchvarani har bir xalq pazandachiligi o‘zining tansiq taomi deb hisoblaydi. Negaki chuchvara tayyorlash pazandalik san’atining mahoratiga erisha olgan uy bekalari taomidan amalga oshiriladi va mehmon dasturxonining ko‘rki hisoblanadi[24].

2. **DIMLAMA** 1 sft. Dimlab pishirilgan. Dimlama somsa. Dimlama kotlet. 2 ot. Go‘sht, yog‘ga piyoz, ko‘proq pomidor va sabzavotlar solib, shularning bug‘ida (selida) dimlab pishirilgan taom. 3 Xomroq holda uzib, qalin narsaga o‘rab, issiq tutib yetiltirilgan. Dimlama pomidor. Dimlama nok[25]. O‘TILda polisemantik so‘z sifatida qayd etilgan mazkur leksemaning birinchi va ikkinchi ma’nolari taom nomi ekanligini izohlab kelgan. Dimlama uchun albatta, qo‘y go‘shti bo‘lishi kerak, ba’zan mol go‘shtidan ham tayyorlanadi.

O‘zbek oshxonasi o‘zining boy madaniyati, an’analari, shu bilan birga, turli xalqlar ta’siri ostida shakllandi, bu taom nomlarining kelib chiqishida ham aks etdi. Oshpazlik an’analarini o‘rganish Markaziy Osiyoning tarixiy aloqalari haqida tasavvur beradi.

Bobning ikkinchi fasli “Tilning lingvistik evolyutsiyasi va unda taom nomlarini o‘rganish masalasi” deb nomlanadi. Madaniy va lingvistik tadqiqotlarning asosiy vazifalaridan biri milliy tillarning o‘ziga xos xususiyatlari, madaniyatning shakllanishida tilning evolyutsiyasi, ahamiyati va madaniy almashinuv dinamikasi bilan bog‘liq. Tilning tabiati va uning ijtimoiy-madaniy funksiyalari bo‘yicha tadqiqotlar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Til madaniyatshunoslik, falsafa, psixologiya, mantiq, semiotika va lingvokulturologiya kabi ko‘plab fanlarning tadqiqot mavzusidir. Dastlabki bosqichda tilni bilish odamlarni hayvonlardan ajratib turishi va nutq kognitiv qobiliyatlar bilan chambarchas bog‘liqligi tan olingan. Tilning lingvistik evolyutsiyasi va taom nomlarini o‘rganish tilning vaqt va makon davomida qanday o‘zgarishini, shuningdek, madaniy xususiyatlar tilda qanday aks etishini tushunishga imkon beradigan qiziqarli tadqiqot sohasini ifodalaydi. Tilning lingvistik evolyutsiyasi vaqt o‘tishi bilan tilning o‘zgarishga uchrash jarayonidir. Ushbu o‘zgarishlar tilning so‘z boyligi, fonetikasi, grammatikasi va semantikasida aks etadi. Ovqat nomlarini o‘rganish oshpazlik san’ati qanday o‘zgarganini, pishirish an’analari qanday shakllanganligini va ma’lum vaqt ichida qanday mahsulotlar mavjud bo‘lganligini tushunishga imkon beradi. Taom nomlarini o‘rganish qadimiy ildizlarga ega bo‘lib, madaniyat va jamiyatning turli jihatlari bilan bog‘liq. Masalan, qadimgi sivilizatsiyalarda taom nomlari diniy marosim va urf-odatlar bilan bog‘liq edi. O‘rta asrlarda taom nomlari ma’lum mahsulotlarning mavjudligini va odamlarning ijtimoiy mavqeyini aks ettirgan. Zamonaviy dunyoda taom nomlarini o‘rganish globallashuvning oshpazlik afzalliklari va an’analariga ta’sirini kuzatish imkonini beradi.

Mutaffakir va olim M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida ham oziq-ovqat va taom nomlarini bildiruvchi so‘zlar aniqlangan va ular ba’zi

[24] Маҳмудов К. Ўзбек тансиқ таомлари. – Тошкент: Меҳнат, 1989. – 344 б. – Б. 230.

[25] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. 1-жилд. – 808 б. – Б. 737.

qarindosh tillar bilan taqqoslangan. Ayrim taom nomlari, jumladan, *жоргем, каттама, буламык* kabi so‘zlarning etimologiyasi tahlil qilingan[26]. Lug‘at zamonaviy qirg‘iz tilida oziq-ovqat nomlari bilan bog‘liq so‘zlarning ishlatilishini taqqoslaydi va natijada ularning aksariyati qirg‘iz tilining lug‘atida fonetik, semantik o‘zgarishlarsiz (ovqat– аш, тамак, sut – сүт, талқаан, талқан – талкан (bug‘doy yoki arpa qilingan bo‘tqa), бал – asal, тоқоч – токоч, токоч нан, чағыр – чагыр, эт– go‘sht, туз – tuz, ун – un va b.) qolganligi, ba’zilari (жыпка – жупка, тариг – таруу, булгама – буламык, агуз – ууз, ашлык – аштык, катма юга – каттама va b.) esa o‘zgarganligi aniqlandi.

Anglashiladiki, milliy taomlar har qanday xalqning moddiy va ma’naviy madaniyatining muhim qismidir. Oshpazlik leksikasini o‘rganish milliy oshxonaning tarixi va o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Shuning uchun taom nomlarini har tomonlama o‘rganish tilshunoslikda katta istiqbolga ega.

Bobning uchinchi fasli “Taom nomlarining lingvistik tahlili” deb nomlanadi. Taom nomlari lingvistik tadqiqotlar uchun qiziqarli materialdir. Bir qator olimlar bu mavzu doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Bu sohada ishlagan taniqli olimlar orasida amerikalik tilshunos Dan Jurafskiy[27]ning alohida o‘rni bor. Rossiyalik lingvist, akademik A.A.Zaliznyak[28] ruscha so‘zlarning etimologiyasi sohasida tadqiqotlar olib bordi va taom nomlarining semantikasini, shuningdek ularning madaniy tarix va an’analar bilan bog‘liqligini o‘rgandi. 2020-yillarda kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan taom nomlariga bag‘ishlangan asarlar yaratildi. Ovqatlanish tili va madaniy tilshunoslikni o‘rganishga ixtisoslashgan tilshunoslar taom nomlarini lingvistik tahlil qilishga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Ular taom nomlarining kelib chiqishi, semantikasi, morfologiyasi va madaniy jihatlarga ta’siri nuqtai nazaridan tahlil qiladilar. Demak, taom nomlarini har tomonlama lingvistik tahlil qilish nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar ochadi. Taom nomlarini lingvistik tahlil qilish tadqiqotning qiziqarli yo‘nalishi bo‘lib, u bir necha jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Etimologik jihat taom nomlarining kelib chiqishi, ularning tarixiy ildizlari va tegishli lingvistik o‘zgarishlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Masalan, taom nomlari tarixiy aloqa va ta’sirlarni aks ettiruvchi turli tillar va madaniyatlarda o‘z ildizlariga ega bo‘ladi.

2. Semantik yo‘nalishda taom nomlarining semantikasi tahlil qilinadi. Ba’zi nomlarda taomning tarkibi, pishirish usuli, mintaqaviy mansubligi yoki boshqa xususiyatlari haqida ma’lumotlar bo‘ladi.

3. Ijtimoiy-madaniy kontekst. Taom nomlari ma’lum madaniyat va mintaqalarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari va an’analarini qanday aks ettirishini o‘rganishni qamrab oladi. Masalan, taom nomlari mahalliy urf-odat, afsona, tarixiy voqea yoki diniy bayramlar bilan bog‘liqdir.

---

[26] Давлатова С.Ж. Названия еды, питания в произведении М.Кашгари «Диван лугат ат-турк» и их использование в современном киргизском языке. Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice https://www.bulletennauki.ru Т. 8. №7. 2022. – С. 556-564.

[27] Dan Jurafsky. The language of Food. – W.W. Norton and Company. – NewYork, – London, 2014. – 246 p.

[28] Зализняк А.А. Из заметок о любительской лингвистике. – Москва: изд-во «Русский мир», 2010. – 240 с. – С. 183-184.

4. Lingvistik strategiya. Metafora, metonimiya, alliteratsiya va boshqa stilistik usullar kabi taom nomlarini yaratish uchun ishlatiladigan lingvistik metodlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Taom nomlarining leksik-semantik xususiyatlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

1. Taom nomlari odatda, ushbu ovqatlar birinchi marta paydo bo‘lgan yoki tarqalgan joylarning geografik nomlaridan kelib chiqadi (*Baffalo qanotchalari, pekincha o‘rdak*).

2. Nom ko‘pincha taomning asosiy tarkibiy qismlarini yoki uni tayyorlash usulini (*borsh, kartoshka pyuresi, qovurdoq, palov* va boshqalar) aks ettiradi.

3. Taomni ixtiro qilgan yoki restavratorlarning ismlari (*Olivye salati, Smetanniklar pirogi*).

4. Ba’zan nomda taomning ko‘rinishi yoki mustahkamligi (*lapsha (makaron), kotlet, puding, jele*) haqida ishora mavjud.

5. Milliy yoki mintaqaviy lazzatni aks ettiruvchi nomlar mavjud (*o‘zbek palovi, kuban pirogi* va h.).

6. She’riy, metaforik nomlar mavjud (*sabzili “Sevimli” torti, “Kamalak” salati*).

7. Ba’zi ismlar chet tillaridan kelib chiqqan va asl imlosini saqlab qolgan (*Venacha qahva*).

8. Ko‘pgina nomlar taomga xizmat qilish shakli yoki usulini aks ettiradi (*sufle, qovurdoq, paelya, bo‘tqa*).

9. Ba’zi nomlar maxsus bayram yoki taomga xizmat qilish vaqti bilan bog‘liq (*Pasxa, Rojdestvo, Maslenitsa bayramlari quymoqlari, go‘ja, sumalak*).

10. Ba’zi hollarda nomda hajmi yoki miqdorini ko‘rsatadigan so‘zlar mavjud (*donador grechka bo‘tqasi, kichik qatlama pirog*).

11. Ijobiy ma’no beradigan kichraytiruvchi so‘z shakllaridan foydalanish mumkin (*pirogcha, kotletcha*).

12. Ba’zan nomi ta’mi fazilatlarini (mazali zapekanka, xushbo‘y six kabob) aks ettiruvchi taomlar.

13. Taomlarning metaforik, majoziy nomlari ham mavjud (xamirda pishirilgan baliq – *“Oltin baliq”, “Shohona baliq*”).

Tilshunoslikda oziq-ovqat semantikasi turli tadqiqot paradigmalarida o‘rganiladi. Muammoning hozirgi holatini tahlil qilish lingvistik tadqiqotning asosiy vektorlarini aniqlashga imkon berdi.

III bob “Taom nomlari sotsiolingvistikasi va lingvokulturologiyasi” deb nomlanib, unda taom nomlarining lingvokulturologik xususiyatlari, sotsiolingvistik tahlili hamda oziq-ovqat tilida kodlangan ijtimoiy iyerarxiya va gender normalari misollar asosida tahlil etilgan. Bobning birinchi bo‘limi “Taom nomlarining lingvokulturologik xususiyatlari” deb nomlanadi. Lingvokulturologiya – bu tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorrahasida rivojlangan, xalq madaniyatining o‘z tilida aks ettirilgan va singdirilgan ko‘rinishlarini o‘rganadigan tilshunoslikning bir bo‘limi.

An’anaviy taom nomlari muhim madaniy va tarixiy ma’lumotlarni ifoda etadi. Taom nomlarining lingvokulturologik jihatlari olimlarda katta qiziqish uyg‘otdi.

So‘nggi o‘n yilliklarda dunyo tilshunoslari oshpazlik lug‘atining lingvistik va madaniy xususiyatlarini faol o‘rganmoqdalar[29].

Quyida o‘zbek va qirg‘iz frazema hamda paremalarida taom nomlarining qo‘llanishi va olamning lisoniy manzarasi komponentlari sifatida voqelanishiga misollar keltiramiz:

№	Taom nomlari qo‘llangan o‘zbek frazema va paremalari	Olamning lisoniy manzarasi komponentlari
1.	Amirning **osh**idan faqirning mushti yaxshi.	Faqirlik, boylik
2.	Boyning ko‘zi **non**da, kambag‘alniki – iymonda.	Xasislik, ziqnalik, ochko‘zlik
3.	O‘zing kesgan **ugra osh**, aylanib ich, o‘rgilib ich!	Aybdorlik, gunohkorlik
4.	Och qolib yegandan so‘ng **zog‘ora non** ham qand bo‘lar.	Yo‘qchilik, qiyinchilik, azob
5.	**Sut**dan og‘zi kuygan qatiqni puflab ichar.	Ehtiyotkorlik, ishiga puxta bo‘lish
6.	Pul bo‘lsa, changalda **sho‘rva**.	Imkon borligi, amalga oshirish mumkinligi

№	Taom nomlari qo‘llangan qirg‘iz frazema va paremalari	Olam lisoniy manzarasi komponentlari
1.	Жалгыз таруу **ботко** болбойт. (Yolg‘iz tariq bo‘tqa bo‘lmaydi)	Birdamlik, o‘zaro yaqinlik, do‘stlik
2.	Колунда **талкан**ы бар бала сүйгүнчүктүү. (Qo‘lida tolqoni bor bola sevimli.)	Manfaat, foyda ko‘zlash
3.	**Сорпо**су даамдуу болсо союлган козуга кайгыруу жок. (Sho‘rvasi mazali bo‘lsa, so‘yilgan qo‘ziga qayg‘urishning keragi yo‘q.)	Arzimoq, loyiq bo‘lmoq
4.	Бир казан сүттү иритиш үчүн бир тамчы **айран** жетиштүү. (Bir qozon sutni iritish uchun bir tomchi qatiq yetarli.)	Buzg‘unchilik, ig‘vogarlik
5.	Абийири **айран**дай төгүлүү (obro‘yi qatiqday to‘kilish)	Obro‘sizlanish, qattiq uyatga qolish
6.	Ысык **ботко**дой жабышуу (issiq bo‘tqaday yopishish)	Ergashish, osilish, ketidan qolmaslik

